

MA'MURIY SUD ISHLARINI YURITISHDA DASTLABKI HIMOYA CHORALARI.

*Навоий туманлараро маъмурий суди
судья ёрдамчиси, 3-даражали юрист
Ш.М.Ёқубов*

Annotatsiya: *Ushbu maqola ma'muriy sud ishlarini yuritishda dastlabki himoya choralari doirasidagi munosabatlarni o'rganadi.*

Kalit so'zlar: *ma'muriy huquq, ma'muriy organ, ishda ishtirok etuvchi shaxs*

Davlat boshqaruvi organlari, ma'muriy huquqiy faoliyatni amalga oshirishga vakolatli bo'lgan boshqa organlar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va ularning mansabdor shaxslari sudda nizo predmeti hisoblanadi. Bundan tashqari ma'muriy sud ishlarini yuritishda mazkur shaxslarning qarorlari, harakatlari (harakatsizligi) bilan bir qatorda idoraviy me'yoriy-huquqiy hujjatlar ham predmet sifatida e'tirof etiladi.

Ma'muriy sud ishlarini yuritish jarayonida aniqlashtirilishi talab etiladigan tushunchalardan yana biri «ma'muriy organ» tushunchasidir.

«Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida»gi qonunning 4-moddasiga binoan ma'muriy-huquqiy faoliyat sohasida ma'muriy boshqaruv vakolati berilgan organlar, shu jumladan, davlat boshqaruvi organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat-organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, shuningdek, ushbu faoliyatni amalga oshirishga vakolatli bo'lgan boshqa tashkilotlar va maxsus tuzilgan komissiyalar ma'muriy organlardir.

Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksning 27-moddasida davlat boshqaruvi organlari, ma'muriy huquqiy faoliyatni amalga oshirishga vakolatli bo'lgan boshqa organlar ma'muriy organ sifatida qayd etilgan.

Ishda ishtirok etuvchi shaxsning arizasiga ko'ra sud, agar:

ma'muriy ish bo'yicha hal qiluv qarori qabul qilinguniga qadar arizachining yoki manfaatida ariza berilgan shaxsning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari buzilishining aniq xavfi mavjud bo'lsa;

arizachining huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini bunday choralar ko'rmay turib, himoya qilish mumkin bo'lmasa yoki qiyin bo'lsa dastlabki himoya choralarini ko'rish mumkin.

Quyidagilar dastlabki himoya choralari bo'lishi mumkin:





Dastlabki himoya choralarini ko'rish to'g'risidagi ariza sudga ariza (shikoyat) bilan bir vaqtda yoki ish yuritish jarayonida berilishi mumkin.

Ariza (shikoyat) bilan birga berilgan dastlabki himoya choralarini ko'rish to'g'risidagi ariza arizani (shikoyatni) ish yuritishga qabul qilish va ish qo'zg'atish to'g'risidagi masalani hal qilish bilan bir vaqtda, ishda ishtirok etuvchi shaxslarni xabardor qilmasdan sud tomonidan ko'rib chiqiladi.

Dastlabki himoya choralarini ko'rish to'g'risidagi ariza sud majlisi chog'ida berilgan taqdirda, u shu majlisda ko'rib chiqilishi kerak.

Dastlabki himoya choralarini ishni ko'rayotgan sud tomonidan ishda ishtirok etuvchi shaxsning iltimosnomasiga ko'ra bekor qilinishi mumkin.

Dastlabki himoya choralarini bekor qilish to'g'risidagi masala sud majlisida hal qilinadi. Ishda ishtirok etuvchi shaxslar majlisning vaqti va joyi to'g'risida xabardor qilinadi. Biroq ularning kelmaganligi dastlabki himoya choralarini bekor qilish to'g'risidagi masalani ko'rib chiqishga to'sqinlik qilmaydi.

